

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10802167>

**XIVA XONLIGIDA DAVLAT TUZUMINING AG‘DARILISHI VA
XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA TOVAR PUL
MUNOSABATLARIDAGI O‘ZGARISHLAR**

Xudarganova Nazokat Parxadovna

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi yetakchi mutaxasisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xiva xonligining davlat tuzumining ag‘darilishi va undan keyin sodir bo‘lgan jarayonlar va XXSR da bo‘lgan tovar pul munosabatlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Asfandiyorxon, M.Mirbadalov, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Olloberganov, Bolsheviklar, Yosh xivaliklar.

**THE OVERTHROW OF THE STATE SYSTEM IN THE KINGDOM OF
XIVA AND CHANGES IN MONEY RELATIONS IN THE KHORAZM
PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC**

ABSTRACT

This article provides brief information about the overthrow of the state system of the Khiva Khanate and the processes that took place after it, as well as the commodity-money relations in the USSR.

Keywords: Asfandiyarkhan, M. Mirbadalov, Polvonniyoz Khoji Yusupov, Olloberganov, Bolsheviks, Young Khiva people.

Petrogradda 1917-yil Fevralda inqilob yuz berib, imperator Nikolay II taxtdan agdarilganda Xiva xoni Asfandiyorxon (Isfandiyorxon) Yaltada dam olayotgan edi. Xon Toshkent-Chorjo'y-Xiva yo'nalishida poytaxtga qaytib keldi.

Turkiston va Buxorodagi ziyolilar kabi Yosh xivaliklar ham, mamlakatda isloxotlar o'tkazish talabi bilan chiqishdi. 1917-yil 4-apreldagi miting natijasida Asfandiyorxon 5-aprel kuni manifest e'lon qildi.

Lekin keyinchalik 1917-yil iyun oyida Muvaqqat hukumatning Xivadagi vakili general M.Mirbadalov rahbarligida xon Yosh xivaliklarni xibsga oldi. Shuningdek. Xivada 25-iyulda komissar lavozimi joriy etilib, Yosh xivaliklar qatag'on qilina boshlandi. Shu tariqa Yosh xivaliklarning tinch yo'l bilan isloxotlar o'tkazish uchun urinishi o'z samarasini bermadi.

1920-yil 23-aprelda Butun Xorazm xalq vakillarining 1 qurultoyida Xorazm Xalk Sovet Respublikasi tuzildi. Xalk Nozirlar Sho'rosi raisi etib Polvonniyoz Xoji Yusupov saylandi.

Xorazmning xalq xo'jaligi ishlari bu davrda juda og'irlashgan edi. 1920-yilning boshlarida Xorazmda jami 35 ming chig'ir ishladi. (1913-yil 80 ming), 55-60 ming desyatina yer ekildi. (1913-yil 175 ming desyatina), paxta maydonlari 3 ming desyatini tashkil qildi. (1913-yil 18,5 ming desyatina). 20 ming oila joysiz qoldi. Faqat turkman aholisi hayot kechirayotgan xududlarda o'zaro nizolar natijasida 5 ming oila xonavayron bo'ldi. Hali 1920-yil 29 may kuni Xiva shahridan Toshkentga Turkkomissiyaga yuborilgan telegrammada «Xivaning ilgari ozgina sanoati ham vayron qilingan, keyingi 2 yil davomida xalq xo'jaligiga kuchli zarar yetkazilganki, yaqin vaqtlarda to'g'rilab bo'lmas... Amudaryo bo'limida ahvol juda yomon o'lka xonavayron, pul bilan yordam kerak, eng og'ir ochlikda qolganlar Xiva tomonidir» deb ta'kidlangan edi. Ana shunday holatga tushib qolgan xududda uch yil ichida oziq-ovqat masalasi ijobiy hal qilindi, bu katta g'alaba edi. Bu o'zaro ishonchni mustahkamladi.

1921-yil 6-martda qizil askarlar yordamida Polvonniyoz Xoji Yusupov hukumati agdarib tashlandi. Sentyabrda XXSR MIK raisi Olloberganov o'z vazifasidan olib tashlandi va o'limga maxkum qilindi. Shu kabi Xorazm xalqining istiqboli uchun

kurashgan ko'pgina vatanparvarlar hokimiyatdan chetlashtirildi. Bolsheviklar bu bilan cheklanib qolmay, mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ham o'z nazoratiga olish uchun zo'r berib harakat qila boshlashdi. Shu maqsadda 1920-yil 13-sentyabrda RSFSR va XXSR o'rtasida 24 moddadan iborat ittifoq shartnomasi hamda 15 moddadan iborat iqtisodiy bitim tuzildi.

Ushbu bitimga kura, XXSR o'zining ichki iste'moli uchun ortiqcha barcha xom ashyosini, XXSR iqtisodiyotining asosi bo'lgan paxta va paxta maxsulotlarini, mo'yna, gilam, teri, jun, urug'liklarning barcha-barchasini RSFSR ixtiyoriga berishi kerak edi. Bundan tashqari, boshqa davlatlar bilan erkin savdo qilish huquqidan mahrum etilgandi. Xorazmning iqtisodiyoti Rossiya ehtiyojiga moslashtirilgandi.

Respublika iqtisodiyotida soliq tizimi alohida o'rin kasb etgan. Chunki, soliqlardan mamlakat byudjetiga juda katta foyda tushgan. Xonlik davridagi asosiy soliq turlari solg'ut va zakot soliqlari hisoblangan. Bolsheviklar respublikada soliq sohasida sinfiy yondashuvni amalga oshirib, soliqning asosiy ogirligini savdogarlar, sudxo'rlar va yirik yer egalari zimmasiga yuklashgan.

Jumladan, 1921-yil 21-iyundagi Xorazm hukumatining dekretiga ko'ra yagona oziq-ovqat solig'i joriy qilindi. Unga ko'ra. 10 tanob yerga ega bo'lganlar 2 sum 50 tiyin, 10 tanobdan ko'p yerga ega bo'lganlar 3 sumdan kup soliq tulagan. Natijada davlat xazinasiga 1920-1921 yillarda 100 mln sum mablag tushgan.

Kurib turibdiki, transport sohasini rivojlantirishdan iqtisodiy soxa ham, siyosiy va harbiy maqsadlar ham ko'zlangan. Chunki havo va suv transportini rivojlantirish orqali bolsheviklar asosan hom ashyo va tabiiy boyliklarni respublikadan Markazga ko'proq olib ketishni mo'ljallashgan. Respublikaning mustaqillik belgisi va iqtisodiyotning muhim tayanchlaridan biri bu milliy valyuta hisoblanadi. Shu maqsadda, Xorazm Respublikasi 1920-yil 11-apreldan o'zining qog'oz, ipak va mis pullarini chiqara boshladi.

1920-yil may oyida 300 000 so'm, iyunda 2 050 000 so'm, iyulda 4 865 000 so'm, avgustda 8 270 000 so'm, sentyabrda 9 514 000, oktabrda 10 078 000 so'm, noyabrda 18 420 000 so'm, dekabrda 21 626 000 so'm pul zarb qilingan. 1921-yil yanvarda

17 511 000 so‘m, fevralda 24 046 000 so‘m, martda 10 210 000 so‘m, aprelda 271 650 000 so‘m pul zarb qilingan. Bundan tashqari mamlakatda Junaidxon tomonidan va RSFSRning 1919-yilda zarb qilingan sovet pullari ham bu davrda muomalada bo‘lganligi uchun Xorazm milliy valyutasi ancha qadrsizlangan.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligida, 1917-yil Petrogradga bo‘lgan Fevral inqilobidan sung, islohot o‘tkazish talabi bilan chiqqan yangi siyosiy kuchlar sifatida Yosh xivaliklar harakati namoyon bo‘ldi. Natijada, bolsheviklarning avvaldan ishlab chiqqan rejasiga ko‘ra qurolli qo‘zg‘olon yordamida 1920-yil fevral oyida XXSR tashkil topdi. Respublikada hukumat rahbarlari Yosh xivaliklardan saylansada, respublikadagi siyosiy va iqtisodiy masalalarda RSFSRning muxtor vakillari doimiy ish olib borgan va asosiy ko‘rsatmalarni berib turgan. Natijada, demokratik davlat tuzishga uringan hukumat rahbarlari o‘z vazifasidan chetlatildi. Siyosiy islohotlar bilan birgalikda mamlakatda 1921-yilda dastabki ma‘muriy tuzilish o‘tkazildi. Lekin bu ma‘muriy tuzilishlar vaqti-vaqti bilan o‘zgarib turdi. Oqibatda, bolsheviklar tazyiqi natijasida 1923-yil oktyabrda XXSR ning nomi XSSR deb o‘zgartirildi.

Iqtisodiy isloxlarni amalga oshirishda esa kommunistik mafkura asosida ish olib borilib, birinchi navbatda, mulkchilik munosabatlariga chek qo‘yildi. Ikkala respublika bilan RSFSR o‘rtasida savdo va iqtisodiy shartnomalar tuzilib, amirlik va xonlik hududidagi podsho Rossiyasiga tegishli mulklar davlat ixtiyoriga o‘tkazildi. Yerlar, zavod va fabrikalar barcha-barchasi davlat tasarrufiga olinib, qattiq nazorat o‘rnatildi. Ammo, temir yo‘l, pochta va telegraf singari harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan ob‘ektlar RSFSR ixtiyorida qoldirildi.

Lekin hukumat rahbarlari mamlakat iqtisodiyotini rinojlantirish uchun qo‘ldan kelgancha milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ish olib borishga harakat qilishdi. Bolsheviklar bilan milliy rahbar kadrlar o‘rtasidagi mojarolardan biri bu vaqf yerlariga munosabat masalasi edi. Markaz vaqf yerlarining davlat nazoratiga olinishidan manfaatdor edi. Chunki vaqf mulklari diniy muassasalarning, shuningdek, diniy ulamolarning daromad manbai hisoblangan. Vaqf mulklarini musodara qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan yana biri «islom» odatlari va shariat qoidalariga zarba

berish edi. Shuningdek, vaqf mulklari xususiy mulkchilikni ham belgilab bergan. Oxir-oqibatda vaqf yerlari Maorif nozirligi tasarrufiga o'tkazildi.

Qishloq xo'jaligidagi asosiy e'tibor paxtachilikka qaratilgan bo'lib, asosan amerika navli paxtani ekishga ko'prok yerlar ajratila boshlandi. Natijada, boshqa qishloq xo'jalik ekinlari ekish yildan-yilga kamayib ketdi. Chorvachilikda asosiy e'tibor ish hayvonlarini yetkazib berishga qaratilishi natijasida aholining go'sht va sut maxsulotlariga extiyoji ortib bordi, shuningdek, qorako'l teri yetkazib berish kamayib ketdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кўшжонов О., Полвонов Н. *Хоразмда ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва харакатлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг биринчи ярми)*. —Тошкент: «Абу матбуот-консалт», 2007.
2. Юсупов П. Х. *Ёш хиваликлар (Хотиралар)*. - Урганч: «Хоразм», 1999.
3. Ражабов К,- *Хоразм Халк Совет Республикаси // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 9. - Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2005.*
4. Ражабов К *Бухоро ва Хоразм Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. -Тошкент: «Шарк». 2001.*
5. *Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида...*
6. Погорельский И. В. *Истории Хивинской Революции в Хорезмской Народной Советской Республики (1917 — 1924 гг.)*. - Ленинград: 1984
7. *История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик.* — Москва: Паука. 1971.